NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik



2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma’lumotlar

# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

### Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **18 703** tani tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **1 575** taga yoki **7,8** % ga kam. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **20,4** birlikni tashkil qildi.

### 2020-2024- yillar 1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz), ming birlikda




### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-mart oylarida **709** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz) tashkil qilindi, bu oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **34,7** % ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – oʻz mulkida, xoʻjalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega boʻlgan hamda oʻz majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, oʻz nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega boʻla oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar boʻla oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

### 2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega boʻlgan sohalar boʻyicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Tuman va shaharlar bo‘yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| 4 326 | Navoiy shahri | 4 229 |
| 3 026 | Karmana tumani | 2 903 |
| 2 771 | Qiziltepa tumani | 2 556 |
| 2 431 | Xatirchi tumani | 2 215 |
| 2 224 | Navbahor tumani | 1 858 |
| 1 385 | Nurota tumani | 1 259 |
| 1 551 | Zarafshon shahri | 1 231 |
| 847 | Konimex tumani | 850 |
| 856 | Uchquduq tumani | 707 |
| 528 | Tomdi tumani | 524 |
| 333 | G‘ozg‘on shahri | 371 |

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **18 703** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **709** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Navoiy shahrida **4 229** tani yoki jamiga nisbatan **22,6** % ni tashkil etdi.

## 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Tuman va shaharlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soning har 1000 aholiga nisbati, birlikda)***




**Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- aprel holatiga, birlikda**







2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **20,4** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **1,5** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari soning har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Tomdi tumanida **47,7** birlik, G‘ozg‘on shahrida **40,6** birlik, Konimex tumanida **27,5** birlik, Navoiy shahrida **26,1** birlik va Karmana tumanida **22,9** birlikka yetdi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*

### Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soning har 1000 aholiga nisbati, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Tomdi tumanida **47,4** birlik, G‘ozg‘on shahrida **40,6** birlik, Konimex tumanida **27,5** birlik, Navoiy shahrida **26,1** birlik, Karmana tumanida **22,9** birlik, Qiziltepa tumanida **21,4** birlik, Uchquduq tumanida **20,3** birlik, Navbahor tumanida **18,9** birlik, Nurota tumanida **18,5** birlik, Xatirchi tumanida **14,0** birlik hamda Zarasfshon shahrida **13,9** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

### 2024- yil 1- aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

**yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| 170 | Navoiy sh. | 181 |
| 150 | Karmana t. | 102 |
| 135 | Xatirchi t. | 79 |
| 107 | Navbahor t. | 74 |
| 153 | Qiziltepa t. | 67 |
| 57 | Konimex t. | 59 |
| 73 | Nurota t. | 39 |
| 89 | Zarafshon sh. | 38 |
| 39 | Tomdi t. | 29 |
| 88 | Uchquduq t. | 26 |
| 24 | G‘ozg‘on sh. | 15 |

**2024- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da**




2024- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Navoiy shahri – **25,5** %, Karmana tumani – **14,4** %, Xatirchi tumani – **11,1** %, Navbahor tumani – **10,4** %, Qiziltepa tumani– **9,4** %, Konimex tumani – **8,3** % Nurota tumani– **5,5** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2023-2024- yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| Iqtisodiy faoliyat turi | 2024- y. | 2023- y. |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 84 | 167 |
| Sanoat | 154 | 213 |
| Qurilish | 32 | 49 |
| Savdo | 225 | 361 |
| Tashish va saqlash | 23 | 45 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 71 | 84 |
| Axborot va aloqa | 34 | 26 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 10 | 17 |
| Boshqa xizmatlar | 76 | 123 |

2023- y. 2024- y.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan tumanlar va shahar, birlikda




2024- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdoda **225 ta,** Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **84** ta yangidan tashkil etilgan.

Navoiy viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Navoiy shahrida **181** ta, Karmana tumanida **102** ta hamda Xatirchi tumanida **79** ta yangidan tashkil etilgan.

2023- y. 2024- y.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **5 394** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **1 863** (yoki **34,3** %) ta, xizmatlar sohasida – **1 262** (yoki **24,0** %) ta, sanoat sohasida – **1 148** (yoki **21,1** %) ta,, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **859** (yoki **15,8** %) ta va qurilish sohasida **262** ( yoki **4,8** %) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da

| Ko‘rsatkich | 2024- y. | 2023- y. |
|---|---|---|
| Sanoat | 6,3 | 8,0 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 95,8 | 96,5 |
| Investitsiya | 35,2 | 50,9 |
| Qurilish | 76,2 | 82,5 |
| Chakana savdo | 92,4 | 93,0 |
| Xizmatlar | 57,0 | 58,0 |
| Yuk tashish | 7,6 | 8,3 |
| Yuk aylanmasi | 37,5 | 38,3 |
| Yo‘lovchi tashish | 86,6 | 86,3 |
| Yo‘lovchi aylanmasi | 86,5 | 87,6 |
| Eksport | 6,1 | 9,7 |
| Import | 41,5 | 44,6 |

2023- y. 2024- y.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi , % da

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyekt-larining ulushi **18,6** % ni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **2,7 %** ga kamaygan.




## 2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida **95,8** % ni, chakana savdoda **92,4** % ni, yo‘lovchi tashishda **86,6** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **86,5** % ni, qurilishda **76,2** % ni , xizmatda **57,0** % tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m**




2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 804,8** mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (**458,2** mlrd. so‘m), Navoiy shahri (**327,7** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**317,4** mlrd.so‘m), Xatirchi tumani (**190,0** mlrd. so‘m) va Zarafshon shahri (**149,0** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi. Tomdida (**14,2** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, mlrd. so‘mda**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da**

*2024- yilning yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **6,3** % ni tashkil etdi.*




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Zarafshon shahri, G‘ozg‘on shahri, Uchquduq tumani va Tamdi tumanlari (**100,0** %), Qiziltepa tumani (**99,2** %), Nurota tumani (**86,2** %), Nurota tumani (**82,8** %), Xatirchi tumani (**49,0** %), Navbahor tumani (**44,1** %), Konimex tumani (**22,3** %), Karmana tumani (**16,6** %) va Navoiy shahri (**1,3** %) tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi




## 2024- yilning yanvar-mart oylarida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

| | | |
|---|---|---|
| G'ozg'on sh. | 1,5 | 100,0 |
| Xatirchi t. | 112,0 | 94,1 |
| Karmana t. | 120,2 | 92,5 |
| Navoiy sh. | 195,8 | 89,1 |
| Navbahor t. | 90,5 | 88,6 |
| Qiziltepa t. | 132,5 | 80,2 |
| Konimex t. | 22,2 | 78,7 |
| Uchquduq t. | 26,0 | 78,5 |
| Zarafshon sh. | 146,2 | 75,3 |
| Nurota t. | 89,6 | 50,8 |
| Tomdi t. | 6,1 | 8,2 |

*hajmi, mlrd. so'mda*

*ulushi, % da*

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 042,6** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **76,2** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **102,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qiziltepa tumanida (**232,5** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (**195,8** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**146,2** mlrd. so'm) Karmana tumani (**120,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**112,0** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**90,5** mlrd. so'm) hamda Nurota tumanida (**89,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 183,7** mlrd. so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **35,2 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **157,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Tomdi tumani (**914,0** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**836,6** mlrd. so‘m), Navoiy shahri (**333,7** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**252,2** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**214,0** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**162,4** mlrd. so‘m), Konimex tumani (**131,9** mlrd. so‘m) hamda Nurota tumani (**121,0** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




## 2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **2 255,4** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **95,8** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **104,4** % ni tashkil qildi.

**2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**599,6** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**426,2** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**330,0** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**277,6** mlrd. so‘m), Nurota tumani **171,1** mlrd. so‘m) hamda Uchquduq tumani (**153,0** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

**2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi**

| | | |
|---|---|---|
| Zarafshon sh. | 19,9 | 100,0 |
| Uchquduq t. | 153,0 | 99,4 |
| Qiziltepa t. | 426,2 | 99,0 |
| Tomdi t. | 128,1 | 98,8 |
| Navbahor t. | 330,0 | 98,6 |
| Xatirchi t. | 599,6 | 95,8 |
| Karmana t. | 277,6 | 95,3 |
| Nurota t. | 171,1 | 94,9 |
| Navoiy sh. | 16,4 | 92,7 |
| G‘ozg‘on sh. | 22,0 | 85,6 |
| Konimex t. | 111,6 | 77,4 |

*hajmi, mlrd. so‘mda*

*ulushi, % da*

**2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2 368,6** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,4 %** ini tashkil etib, o‘sish sur‘ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **114,0** % ni tashkil qildi.

## 2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

| | | |
|---|---|---|
| G‘ozg‘on sh. | 24,0 | 99,8 |
| Uchquduq t. | 133,4 | 99,3 |
| Tomdi t. | 28,3 | 99,2 |
| Karmana t. | 441,5 | 98,8 |
| Qiziltepa t. | 325,0 | 98,6 |
| Xatirchi t. | 343,8 | 97,8 |
| Nurota t. | 110,9 | 97,0 |
| Konimex t. | 82,7 | 94,5 |
| Navbahor t. | 138,3 | 88,9 |
| Zarafshon sh. | 258,6 | 87,8 |
| Navoiy sh. | 482,2 | 84,3 |

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**482,2** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**441,5** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**343,8** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**325,0** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**258,6** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**138,3** mlrd. so‘m) Uchquduq tumani (**133,4** mlrd. so‘m) va Nurota tumani (**110,9** mlrd.so‘m) ga to‘g‘ri keldi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




**2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda**




2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 786,9** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **57,0 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur‘ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **112,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (**412,8** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**291,9** mlrd. so‘m), , Zarafshon shahri (**236,4** mlrd. so‘m),Qiziltepa tumani (**228,8** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani, (**189,3** mlrd. so‘m) Navbahor tumani (**139,2** mlrd so‘m) va Nurota tumani (**112,4** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Xizmatlar sohasi turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi va ulushi (2024-yil yanvar-mart)**

| *Hajmi, mln. so‘mda* | | *Ulushi, foizda* |
|---|---|---|
| 856,3 | Savdo xizmatlari | 95,9 |
| 481,9 | Transport xizmatlari | 88,0 |
| 138,0 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 68,0 |
| 87,5 | Shaxsiy xizmatlar | 100,0 |
| 45,3 | Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 97,5 |
| 37,9 | Ijara xizmatlari | 98,0 |
| 37,3 | Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 80,1 |
| 31,6 | Boshqa xizmatlar | 29,0 |
| 22,2 | Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 53,9 |
| 20,5 | Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 20,1 |
| 19,0 | Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 22,5 |
| 6,8 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 5,7 |
| 2,4 | Moliyaviy xizmatlar | 0,3 |

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi shaxsiy xizmatlarda – **100,0** % (87,5 mln. so‘m), Ijara xizmatlarida – **98,0** % (**37,9** mln. so‘m), Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarida – **97,5** % (**45,3** mln. so‘m) hamda savdo xizmatlarida **95,9** % (**856,3** mln. so‘m)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,3** % (**2,4** mln. so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, *mln. AQSH dol.*




Ulushi, *% da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, *mln. AQSH dol.*




Ulushi, *% da*



**2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **15 432,8** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **6,1** % ini tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**

| | | |
|---|---|---|
| Karmana t. | 7 185,3 | 33,5 |
| Qiziltepa t. | 2 272,3 | 98,5 |
| Navoiy sh. | 1 916,8 | 0,9 |
| Xatirchi t. | 1 303,3 | 8,8 |
| Navbahor t. | 923,7 | 13,9 |
| G‘ozg‘on sh. | 721,5 | 100,0 |
| Zarafshon sh. | 375,9 | 98,7 |
| Uchquduq t. | 321,9 | 99,4 |
| Konimex t. | 315,2 | 100,0 |
| Nurota t. | 79,3 | 6,5 |
| Tomdi t. | - | - |

*hajmi, ming AQSH dollar*

*ulushi, % da*

2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi G‘ozg‘on shahriida, Konimex tumanida – **100,0** %, Uchquduq tumanida – **99,4** %, Zarafshon shahrida – **98,7** %, Qiziltepa tumanida – **98,5** %, Karmana tumanida – **33,5** %, Xatirchi tumanida – **8,8** %, Navbahor tumanida – **13,9** % va Nurota tumanida – **6,5** % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Navoiy shahrida – **0,9** % ni tashkil etdi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **45 284,0 ming** AQSH dollarini yoki jami importning **41,5** % ini tashkil etdi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G‘ozg‘on shahrida, Tomdi, va Uchquduq tumanlarida **-100,0** %, Qiziltepa tumanida **- 93,9** %, Konimex tumanida - **79,2** %, Zarafshon shahrida- **68,2** %, Nurota tumanida - **50,9** %, Navbahor tumanida - **43,0 %** hamda Karmana tumanida **42,2 %** ni tashkil etdi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **7,6** % ni tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati **95,0** % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **37,5** % ni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati **98,8** % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,6** % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati **102,6** % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,5** % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati **102,2** % ni tashkil qildi.

## 2024- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **1 011** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **526** (**52,0**%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **447** (**44,2** %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **38** (**3,8** %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **47,6** % (**481** ta), xizmatlar sohasida – **20,5** % (**207** ta), sanoatda – **15,0** % (**152** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **10,8** % (**109** ta), qurilishda – **6,1** % (**62** ta) ni tashkil etdi.

## 2024- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



## 2024- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi

| Soni, birlikda | | Ulushi, foizda |
|---|---|---|
| 240 | Navoiy sh. | 23,7 |
| 158 | Karmana t. | 15,6 |
| 154 | Qiziltepa t. | 15,2 |
| 111 | Xatirchi t. | 10,9 |
| 87 | Navbahor t. | 8,6 |
| 72 | Nurota.t | 7,1 |
| 62 | Zarafshon sh. | 6,1 |
| 61 | Konimex.t | 6,0 |
| 26 | G'ozg'on sh. | 2,6 |
| 26 | Tomdi t. | 2,6 |
| 16 | Uchquduq t. | 1,6 |

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (**240** ta), Karmana tumani (**158** ta), Qiziltepa tumani (**154** ta) va Xatirchi tumani (**111** ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-mart oylarida **435** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-mart oylariga kelib esa **526** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-martiga nisbatan **91** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-mart oylarida **140** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-martiga **447** ta yoki **307** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-mart oylarida **5** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylariga kelib **38** tani tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2019 yilning yanvar-martiga nisbatan **33** taga oshgan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-mart oylarida **385** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-mart oylarida kelib esa **458** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-martiga nisbatan **73** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-mart oylarida **187** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-mart oylarida kelib esa **397** taga yetgan yoki **210** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019- yilning yanvar-mart oylarida **8** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylarida kelib, bu ko‘rsatkich **33** tani tashkil etib, 25 taga oshgan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-mart oylarida **73,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-mart oylarida kelib esa **52,0** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-martiga nisbatan **21,9** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-mart oylarida **24,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martiga **44,2** % yoki **20,1** % ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-mart oylarida **2,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich **3,8** % ga yetgan yoki **1,8** % ga kamaygan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-mart oylarida **81,2** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-mart oylarida kelib esa **55,5** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-martiga nisbatan **25,7** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-mart oylarida **18,5** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-mart oylarida **41,8** % yoki **23,3** % ga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqrsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-mart oylarida **0,3** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylarida kelib, bu ko‘rsatkich **2,7** % yoki **2,4** % ga oshgan.

## 2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning I choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – **69,7** % ni savdo sohasida - **53,6** % ni, xizmatlar sohasida - **48,5** % ni, sohasida – sanoat sohasida **46,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qurilish sohasida – **56,5** % ni, sanoat sohasida – **48,7** % ni, xizmatlar sohasida – **46,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi ,qurilish sohasida– **8,1** % ni, xizmatlar sohasida – **5,2** % ni, sanoat sohasida – **4,6** % ni tashkil etdi.

## 2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin **3** oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – **67,0** % ni, savdo sohasida – **55,6** % ni va xizmatlar sohasida – **54,5** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin **3** oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qurilish sohasida **- 51,6** % ni, sanoat sohasida – **44,7** % va savdo sohasida – **42,7** % ni, tashkil etdi.

Yaqin **3** oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida – **3,9** % ni, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – **3,7** % ni va sanoat sohasida – **2,6** % tashkil etdi.

## 2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 43,1 | 51,7 | 5,2 |
| Band bo'lganlar soni | 19,5 | 77,2 | 3,3 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 29,0 | 67,5 | 3,5 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 21,7 | 74,8 | 3,5 |
| Raqobat muhiti | 39,4 | 57,9 | 2,7 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 49,0 | 48,1 | 3,0 |
| Band bo'lganlar soni | 24,5 | 73,2 | 2,3 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 33,3 | 64,1 | 2,6 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 29,2 | 67,7 | 3,2 |
| Raqobat muhiti | 44,2 | 53,4 | 2,4 |

** Faqat raqobat muhitiga tegishli*

**2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**




**2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**




** Faqat raqobat muhitiga tegishli*